

## **DARS JARAYONIDA O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRADIGAN INTERFAOL O'YINLAR**

*TDYU qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyi*

*Tillar kafedrasi yetakchi o'qituvchisi*

*Roza Ermetova Reyimbayevna*

**Annotatsiya:**Dars davomida didaktik o'yinlarning o'rni beqiyos. Didaktik o'yinlar o'qituvchining pedagogik mahoratiga tayanadi va dars samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqola orqali bir necha interfaol o'yinlarni dars davomida qo'llash texnologiyalaridan foydalanamiz.

**Abstract :** The role of didactic games during the lesson is incomparable. Didactic games rely on the teacher's pedagogical skills and serve to increase the effectiveness of the lesson. Through this article, we will use the technologies of using several interactive games during the lesson.

**Аннотация:** Роль дидактических игр на уроке бесценна. Дидактические игры опираются на педагогическое мастерство учителя и служат повышению эффективности урока. Благодаря этой статье мы будем использовать технологии использования на уроке нескольких интерактивных игр.

**Kalit so'zlar:**Integral dars, didaktik o'yinli mashg'ulotlar, "Xotira mashqi" o'yini, ijodiy o'yinlar, savol-javoblar, ta'lim jarayonida faollik

**Key words:** Integral lesson, didactic game activities, "Memory exercise" game, creative games, questions and answers, activity in the educational process

**Ключевые слова:** Интегральный урок, дидактическая игровая деятельность, игра «Упражнение на память», творческие игры, вопросы и ответы, деятельность в учебном процессе.

Dars davomida o'quvchilarning diqqatini jamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda pedagoglarning pedagogik mahoratlari va ularning interfaol o'yinlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Tergovchi bilimdonlar olib boradigan darsi – dars mavzusini oldindan puxta o‘rgangan o‘quvchilar yordamida qiziqarli savol – javoblar, tahlillar asosida isbotlab, tushuntirish mashqlari bo‘lib, bunda o‘quvchilar dars mavzusini o‘zlashtirib eslab qolishlari uchun qulaylik yaratadilar.

Integral (integratsiyalangan) dars – bir nechta fanlarga doir integratsiyalash uchun qulay bo‘lgan mavzular bo‘yicha tashkil qilingan dars bo‘lib, o‘quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib ta’lim jarayonidagi faolliklarini taminlaydi. Bunday darslar o‘quvchilarga fanlararo bog‘liqlikni o‘rgatish orqali ularda odam tuzilishining ilmiy asoslarini to‘liq idrok etish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish ijodiy tafakkurlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mo‘jizalar maydoni darsi o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan qiziqarli o‘yinlar bo‘lib turli savollarga belgilangan vaqt davomida to‘g‘ri javoblar topish va g‘oliblarni rag‘batlantirish orqali o‘quvchilarda fikrlash, topqirlik va ziyraklik, bilimlarni kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi.

Didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarni o‘quvchilarning bilim olish va o‘yin faoliyatining uyg‘unligiga qarab syujetli, ro‘lli o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar, ishbilarmonlar, konferensiyalar kabi o‘yin mashqlariga ajratish mumkin. O‘qituvchi pedagog, avval o‘quvchilarni individual (yakka tartibdagi) so‘ngra guruhli o‘yinlarga tayyorlashi va uni o‘tkazishi, o‘yin muvaffaqiyatli chiqqandan so‘ng esa ularni

ommaviy o‘yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki o‘quvchilar didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lishlari, bundan tashqari guruh jamoasi o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro yordam vujudga kelishi lozim.

**1.** Didaktik o‘yinlarni xilma-xil tarzda tashkil etish mumkin. O‘yinchoqlar, rasmlar, tarqatmalar, geometrik shakllar ko‘rgazmalardan foydalanish mumkin. Didaktik o‘yinlardan foydalanishda aniq maqsad bo‘lishi unda bolaning yoshi, qiziqishi, fanga mosligi, undan erishish kerak bo‘lgan natija hisobga olinishi zarurdir. Yana har bir didaktik o‘yinni boshlashdan oldin, o‘quvchilarga o‘yinning qoidasi, mazmuni to‘la tushuntirilishi kerak. Har bir o‘rin mantiqiy ketma- ketlik

asosida bo‘lishi kerak, va kam vaqt sarflab ulkan natijalarga ega bo‘lish ham muhim hisoblanadi. Shunday qilib boshlang‘ich sinflarda didaktik o‘yinlardan foydalanib dars o‘tish o‘quvchilar faolligini oshiradi, ularni aqlini charxlaydi, mantiqiy fikrlash qobiliyatini o‘stiradi, diqqatini bir joyga to‘plashni o‘rgatadi, intizoli va tartibli qilib tarbiyalashga yordam beradi.

“Xotira mashqi” o‘yini. Hozirjavoblik va zukkolikni oshirish maqsadida, ayniqsa birinchi tanishuv darsida qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘yin. O‘quvchi o‘z ismini aytadi va shu ism bilan boshlanuvchi biror adib nomini aytadi. Misol uchun, Adham – Alisher Navoiy, Bahodir – Zahiriddin Muhammad Bobur, Gavhar – Gulxaniy kabi. Bu o‘yinni mavzuga aloqador bo‘lgan terminlarni misol qilib keltirish orqali ham olib borsa bo‘ladi. Bunda o‘quvchi miyasida mavzuning asosiy terminlari muhrlanib qoladi!

"To‘g‘ri-noto‘g‘ri" o‘yini. O‘qituvchilar savollarni an‘anaviylikdan qochgan holda berishlari ham mumkin. Berilgan savolga o‘quvchi faqat to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri deb javob beradi. Misol uchun: O‘zbek tiliga davlat tili maqomi 1989- yil 21- oktabrda berilgan – to‘g‘ri.

“Bo‘laklarni tiklash” metodi. Bu metodda o‘qish darslarida she‘r, topishmoq, maqollarni eslab qolish malakasini tekshirish uchun foydalaniladi. She‘r, topishmoq, maqol matni bo‘laklarga bo‘linib, o‘quvchilarga aralash holda beriladi. O‘quvchilar bo‘laklarni tiklab, sinf doskasiga qo‘yilgan ko‘rgazma taxtasiga yopishtirishadi.

**2.** Har bir didaktik o'yinda alohida pedagogik maqsad yotadi. Har bir interfaol o'yin har bir mahoratning shakllanishiga alohida imkon yaratadi. Tarbiyalash va o‘rgatish vositasi sifatida didaktik o‘yin darsni tashkil qiluvchi qismi bo‘lib xizmat qiladi. O‘yin jarayonida mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodiy faollik o‘ziga boradi. U bilimlarni yaxshi o‘zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. O‘yin yordamida bolalar ancha ko‘p ma‘lumotlarga ega bo‘ladilar. Bu axborotlar bola ongiga ixtiyoriy tarzda, majburlashsiz kirib keladi. Shuning uchun, u ishyoqmasni ishchan, bilmaydiganni bilag‘on, no‘noqni epchil qilishi mumkin. O‘qitishning o‘yin shakli kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun darslarni o‘zlashtirishning asosiy vositasi hisoblanadi. O‘yinning o‘qitish-o‘rgatish jarayonidagi imkoniyatlari olimlar tomonidan – didaktik o‘yinlarni maxsus o‘rganilishiga olib keldi. Didaktik o‘yin – o‘yinning shunday turi

bo‘lib, u yangi bilimlarni o‘zlashtirish, umumlashtirish, mustahkamlash, bilish jarayonini faollashtirish, kichik bolalarni o‘quv faoliyatiga ko‘niktirishga ko‘maklashadi. Didaktik o‘yin murakkab, ko‘p qirrali hodisadir. Didaktik o‘yinlarda nafaqat bilimlar o‘zlashtiriladi, ko‘nikmalar hosil qilinadi, balki bolalarning barcha ruhiy jarayonlari ham rivoj topadi.

O‘yin davomida sezgilar bilan birgalikda fikrlash ham amalga oshadi, ma’lum dunyoqarash aks etadi. Ushbu yangi g‘oyalarni ongli ravishda tushunish ham bola uchun o‘ziga xos kashfiyot bo‘ladi. Bu yerda ham tasavvur muhim rol o‘ynaydi. Kichik maktab yoshidagi bola o‘z xayolida turlicha holatlarni tasavvur qila oladi. Maktabda o‘qish sharoitida bola tasavvuriga ma’lum talablar qo‘yiladi. Turli hikoyalar tuzish, ertaklar o‘ylab topish, har xil qahramonlar holatlarini ifodalash orqali, bolalar o‘zlari bilmagan holda o‘ziga ma’lum bo‘lgan sujetlar, grafik obrazlardan foydalanishadi. Lekin ko‘pchilik hollarda bola ushbu ma’lumotlardan foydalanib, ularni kombinatsiyalab yangi obrazlar - o‘z qahromonlarining yangi jihatlarini yaratadi. O‘yin davomida tasavvurning uzluksiz ish faoliyati – bola tomonidan atrof-muhitni anglash va o‘rganishdagi ijtimoiy voqelikka moslashishdagi muhim yo‘nalish hisoblanadi.

### **3.Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1.Talqin va tadqiqotlar. Xolmatova Ra‘noxon Qambaraliyevna. TA’LIM DA DIDAKTIK O‘YINLAR VA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI, 131-b

2.Ustozlar uchun, Imanova Raxila Nigmatullayevna, BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA DARSLARNI DIDAKTIK O‘YINDAN FOYDALANIB O‘TISH YUZASIDAN USLUBIY

TAVSIYALAR, 21-b

3.Ta'lim Fidoyilari, Xidirova O'g'ilnoz Xurramovna

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH ORQALI MATEMATIK KOMPETENTSIYALARNI SHAKLLANTIRISH, 144-145-b

